

## JURNALISTLAR RISHTONDAGI BUNYODKORLIK ISHLARI BILAN TANISHISHDI

Bugun Rishton tumanida Milliy Media assosiasiyasi tomonidan tashkil etilgan "Xalqaro milliy media tur o'tkazildi. Mazkur tadbirda Rishton tumanı hokimi S. Soliyev, Milliy Media assosiasiyasi rahbari Sherzodxon Qudratxo'jayev boshchiligidagi respublikada faoliyat yuritayotgan jurnalistlar ishtirok etishdi.

Media-tur doirasida jurnalistlar dastlab usta-kulol Shokirjon Ahmadjonov rahbarlik qilayotgan "Mingboshi Keramik" oilaviy korxonasida bo'lishdi. U yerda tayyorlanayotgan kulolchilik mahsulotlari va ularning tayyorlash jarayonlari bilan tanishishdiUmuman olganda, tumanimizdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahallalar, xonadonlarda ish boshlagan oilaviy korxonalar faoliyati ham jurnalistlarda katta qiziqish uyg'otdi.

□ Shuningdek, media-tur ishtirokchilari tumanda tadbirkor Islomjon Orifjonov tomonidan qurilayotgan "Chinor plyus 2020" turistik majmuasi bilan tanishishdi. Oqer MFY hududida joylashgan, qurilish-pardozlash ishlari deyarli yakunlanayotgan ushbu majmuuaning loyiha qiymati 50 milliard so'mni tashkil etib, shundan 20 milliard so'm tadbirkorning o'z mablag'i hisobiga to'g'ri keladi. Kelgusi oylarda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilayotgan turistik majmuada mehmonxona, sauna, yozgi va qishki basseyn va boshqa xizmat ko'rsatish shaxobchalari joylashgan bo'lib, Rishton turistik salohiyatining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shami. Ushbu majmuaga yondosh hududda barpo etilayotgan Kulolchilik markazida ham qurilish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

### **Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2023-03-11 14:08:59